

JAMIYATGA HUQUQIY BILIM VA MADANIYAT QAY DARAJADA KERAK

Norboyev Durbek Bahodirovich

*O'zbekiston Respublikasi Davlat Jahon tillari
akademik litseyi yurisprudensiya yo'nalishi 1-kurs o'quvchisi.*

Dustmurodova Z.X

Ilmiy rahbar O'zDJTUal ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedراسi mudiri

*"Muhim ahamiyatga ega bo'lgan nimaiki yaratilgan bo'lsa, albatta u kuchli tartib
asosida tashkil etilgan"* (Andrew Hendrixson)

Annotatsiya: *Huquqiy bilim va madaniyatsiz davlat rivojlanishi bo'lmaydi.*

Kalit so'zlar: *Jamiyat, shaxs, fuqarolar, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat, korrupsiya.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

“Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan kontseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanadi.

Ma'lumki jamiyatimizda aholini huquqiy bilimi va madaniyati yetarli darajada emas, ya'ni fuqarolar o'z haq-huquqlarini talab qilishni bilmaydi.

O'z haq-huquqini bilmagan kishilar turfa xil maqsadli shaxslarni qilayotgan ish-harakatini va shu bilan birga o'sha shaxslarni manfaatlari yo'lida ulardan foydalanishadi.

So'nggi yillarda jamiyatimizda huquqiy bilim va madaniyatni rivojlantirish uchun (Adliya) vazirligi mas'ul organ sifatida tayinlandi. Jamiyatimizda fuqarolar o'z huquqlarini talab qilmas ekan, ularda va davlatimizda rivojlanishi bo'lmaydi.

Mening o'z hayotimda o'zimning 3 ta qoidam bor:

- 1.Huquqlarni talab qilish.
- 2.Shikoyat qilish.
- 3.Imkoniyatlardan foydalanish.

Mana shu 3 ta qoidani ijtimoiy hayotda foydalana bilsak o'zimiz hamda boshqalarni huquqlari va erkinliklariga erishamiz hamda davlatimiz rivojiga oz bo'lsa ham hissa qo'shgan bo'lamiz.

Birinchi qoida bo'yicha ma'lumot berib o'tadigan bo'lsam, fuqarolarimiz bir-ikki yil avval biror bir organga ishi tushsa ikkilangan, nega bunday bo'lgan degan javobga aytsa bo'ladi. Chunki o'z huquqlarini bilmaganligi va talab qilishni bilishmagan. Masalan:Notarial organlarga borganda biror bir narsani hisoblashda ortiqchasi bilan hisoblashdimikan, yoki shunga o'xshagan muammolarga duch kelishgan. Chet davlatlariga e'tibor berib qarasak, masalan, Amerika fuqarolari bu kabi ishlarda ikkilanmasdan murojaat qilishadi,chunki ular o'z huquqlarini biladi va ulardan foydalana bilishadi.

Ikkinchi qoida, shikoyat qilish bunda o'z haq-huquqlari buzilganligi haqida tegishli organlarga murojaat qilishlari mumkin. Jamiyatimizda ko'pgina fuqarolar buzilgan huquqlarini talab qilishni bilishmaydi. Masalan, biror bir organ tegishli ruxsatnoma yoki hujjatsiz va shunga o'xshash hujjatlarsiz korxonada, shaxsiy uyiga bostirib kirib tintuv o'tkazishga haqli emas.

Uchinchi qoida, imkoniyatlardan foydalana bilish. Mamlakatimizda fuqarolarga ko'plab imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. Fuqarolarimiz ijtimoiy ne'matlardan ya'ni tekin manfaatlarini olishi va foydalanishlari mumkin. Ta'lim olish, tibbiy xizmatlardan foydalanish sohasi va shunga o'xshash xizmatlardan foydalana olishi tekin manfaat ko'rish deyiladi. Ammo shu imkoniyatlarni talab qilmas ekan bu imkoniyatlardan ularga boshqa yo'llar bilan ya'ni pullik yo'l bilan foydalanishadi. Shu bilan birga aytib o'tish kerakki, hammasi fuqarolarimizning huquqiy savodxonligi kamligiga borib taqaladi.

Huquqiy bilimlarni oshirish uchun fuqarolar o'ziga kerakli bo'lgan hamma narsalarni o'rganib muttadil oshirib borish kerak. Ammo doim ham huquqiy savodsizlik fuqarolarga borib taqalmaydi, nega deganda, organlarda va davlat idoralarida ishlaydigan shaxslar qonunni o'z yo'nalishi bo'yicha ya'ni o'zining manfaatiga qaratishga harakat qilishadi.

Shu bilan qarabsizki "Korrupsiya" deb atalmish illat vujudga keladi, korrupsiya vujudga kelgandan keyin xalqimiz orasida tabaqalashuv vujudga keladi va hammasi huquqiy bilimsizlikka sababchi bo'lib qoladi.

Ijtimoiy hayotda inson o'z huquq va fikrlarini erkin, tazyiqsizlarsiz bildirishi kerak, shundagina fuqaro o'z huquqlarini dastlabki qismini bajara oladi. Jamiyatimizda hamma o'z huquqlarini biladi, ammo undan foydalanish vaqtida ikkilanadi chunki, bu huquqlar, bu qonunlar amalda emas deb o'ylaymiz.

Jamiyatimizda huquqiy madaniyatga katta e'tibor qaratilgan. Huquqiy madaniyat jamiyatda bir-birimizni hurmat qilgan holda muomualarga kirishishni bilishimiz kerak. Huquqiy madaniyatsiz bilim bo'lmaydi. Qadimgi binolar va birga yaratib berilgan narsalarga ehtiyotkorona va ma'daniyat ila foydalansak bu huquqiy madaniyat misolida bo'ladi, Ammo huquqiy madaniyat bu bilan chegaralanib qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://xushnudbek.uz/> Faqat haqiqatni, barcha haqiqatni, haqiqatdan o'zga hech narsani.....
2. www.wikipedia.uz O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. O'zbekiston Respublikasining 29.08.1997y.461-1-sonli Huquqiy bilim to'g'risidagi qonun.